



THE TERM “OVOZNI SOZLASH” QUA VARIANT IN PREFERENCE TO DENOTATION OF SUBJECT “OVOZNI YO’LGA QO’YISH” AND SPECIAL VOICE EXERCISES

Sukhrob Jumaev

The teacher of the subject “Ovozni yo’lga qo’yish”, the department of “Makam singing”, The Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11351844>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2024

Accepted: 26th May 2024

Online: 27th May 2024

KEYWORDS

Term, buzzword, “Ovozni yo’lga qo’yish”, “Ovozni sozlash”, equipment of voice, voice exercises, dynamic notes, crescendo, diminuendo, melisma, vorschlag.

ABSTRACT

When the terms or buzzwords “Ovozni yo’lga qo’yish” and “Ovozni sozlash” enter into education systems, revision and correctly checking the meaning of them become the main task of this article. Furthermore, effective voice exercises are showed additionally in the presentation as musical notes which were composed during the period of pedagogical practice at the end of the article. These exercises are described which features of singers are developed with them.

“OVOZNI YO’LGA QO’YISH” FANINING NOMLANISHI O’RNIGA MUQOBIL SIFATIDA “OVOZNI SOZLASH” TERMINI VA MAXSUS OVOZ MASHQLARI

Suhrob Jumayev

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasida “Ovozni yo’lga qo’yish” fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11351844>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2024

Accepted: 26th May 2024

Online: 27th May 2024

KEYWORDS

Termin, atama, “Ovozni yo’lga qo’yish”, “Ovozni sozlash”, ovoz apparati, ovoz mashqlari, dinamik belgilar, kreshchendo, diminuendo, melizm, forshlag.

ABSTRACT

“Ovozni yo’lga qo’yish” va “Ovozni sozlash” iboralari yoki atamalari ta’lim dasturlariga kirib borar ekan, ularning ma’nosini qaytadan ko’rib chiqib, o’zgartirilishi kerak bo’lganlarini to’g’risiga almashtirish quyidagi maqolaning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga maqola so’ngida qo’shimcha tarzda pedagogik amaliyoti jarayonida ishlab chiqilgan va samarali deb topilgan ovoz mashqlariga ham misollar nota ko’rinishida keltiriladi. Bu mashqlar xonandaning qaysi jihatlariga foyda berishi mashq oldidan ularga berilgan ta’riflarda bildirib o’tiladi.

Ayni damda o’quv muassasalari amaliyotiga, umuman olganda, ta’lim dasturlariga kirib borayotgan ilmiy atama va istilohlar ustida ishlash dolzarb mavzulardandir. Avvalo termin so’zining lug’aviy ma’nosiga to’xtalish kerak bo’ladi. **Termin** [lot. terminus – chek, chegara]



Fan. Texnika. Kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama".¹ Biror bir fan, soha, ilmiy ish, umuman olganda nomlanishi kerak bo'lgan istalgan amaliyot yoki jarayonning ilmiy nomlanishi mujmal bo'lmasligi lozim. Shunday ekan xonandalar uchun o'tiladigan "Ovozni yo'lga qo'yish" fanining nomlanishiga to'xtalib o'tish lozim topildi. Shu vaqtgacha mazkur fanning "Постановка голоса", so'zma-so'z tarjima qilinganda "ovozni o'rnatish" yoki "ovozni yo'lga qo'yish" deb nomlanishi amaldadir. Endilikda ushbu nomlanish – **"Ovozni yo'lga qo'yish"** o'rniga **"Ovozni sozlash"** atamasi tavsiya etiladi. Chunki "yo'lga qo'yish" so'z birikmasida ma'no tushunarsiz holatga kelmoqda. Uning o'rniga esa "sozlash", ya'ni "to'g'rilash", "soz qilish", "yaxshilash" so'zi ishlatilgani ma'qul hisoblandi. "Sozlamog" so'zining lug'aviy ma'nosi: **"Sozlamog 1** Soz qilmoq, to'g'rilamoq, yaxshilamoq; tartib bermoq; **2** Yaxshilamoq, yaxshi qilmoq; **3** Musiqa asboblari tovushini o'zaro moslashtirmoq, uyg'unlashtirmoq, sozini to'g'rilamoq (Faqat kerakli ma'nolari olindi.)".²

Xonanda uchun ovoz masalasi o'ta muhimdir. Xonanda doimo asar ijrosi mobaynida o'z ovozinig jarangli va shu bilan birga mayin, yoqimli va shirali bo'lib tinglovchiga eshutilishini istaydi. Vaziyat esa xonanda doimo o'z ustida ishlashini taqozo etadi. Ishlaganda ham to'g'ri va tartibli, ortiqcha yuklamalarsiz shug'ullanish nazarda tutiladi. Maxsus mashqlar yordamida inson o'z ovoz apparatiga zarar yetkazmagan holatda mahoratini oshirib boradi. Hozirgi kunlarda xonandalarning ovozini ijro jarayoniga tayyorlash borasida ko'pgina ovoz mashqlari ishlab chiqilgan. Quyida esa shu kabi ovoz mashqlariga misollar tavsiya sifatida keltiriladi. Ushbu mashqlar Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutidagi ilmiy tadqiqot va pedagoglik amaliyoti mobaynida ishlab chiqildi:

Ovoz sozlash mashqlari:

1. Ovoz mashqlari doimo yopiq lab bilan boshlanadi. Chunki xonanda uchun yengildan murakkabga qarab rivojlantirib boriladigan ovoz mashqlari ayni muddaodir. Ushbu ovoz mashqida yuqoriga harakat uch marta amalga oshiriladi va har yuqori pog'onaga chiqishda ko'tarib boriladi. Faqat mashqning to'g'ri bajarilayotganiga qattiq e'tibor berish lozim bo'ladi. Agar mashq to'g'ri bajarilsa, lab va burun atrofi, umuman olganda xonandaning yuz qismida mayin tebranishlar hosil bo'ladi. Agar noto'g'ri bajarilsa, xonanda o'zida noqulaylikni his etadi. Bunda imkon darajasida xonanda tovush tebranishini yuz qismiga yo'naltirishga harakat qilishi lozim:

¹ ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. "Т" ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Тошкент. (Kitobning elekton versiyasi www.ziyouz.com kutubxonasi saytidan olindi.) 73-b.

² ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. "С" ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Тошкент. (Kitobning elekton versiyasi www.ziyouz.com kutubxonasi saytidan olindi.) 544-b.



Largo

Largo

2. Navbatdagi ovoz mashqida esa dinamik belgilarga urg'u beriladi. Avvalo keltirilajak ovoz mashqida ishlatiladigan dinamik belgilarning ta'rifiga yana bir bor to'xtalib o'tish lozim. "**Kreshcendo** (it. *crescendo* – zo'rayib) – chalinayotgan musiqa asarining sur'atini o'zgartmay, tovush kuchining asta-sekin kuchayib borishi".³ Ushbu dinamik belgi bilan ovoz paychalari orqali hosil qilingan tovush ravon kuchaytirib boriladi. "**Diminuendo** (it. *diminuendo* – kichraytib; qisqartmasi – dim.) tovushni asta-sekin pasaytib chalish".⁴ Ushbu dinamik belgi bilan esa ovoz paychalari orqali hosil qilingan tovushning kuchi ravon pasaytirib boriladi. Hozir taqdim etiladigan ovoz mashqi xonanda o'zbekona nolalardan foydalanishi uchun qulay **melizmlar** bilan ham bezatilgan. Unda **forshlag** melizmi bor bo'lib o'ziga xos dinamika bilan ijro etilishi kerak bo'ladi. Xonanda kreshcendo yordamida uchinchi taktdagi notani cho'zib turadi va diminuendo yordamida navbatdagi taktdan boshlab forshlag orqali tovushining kuchini pasaytirib boradi. Xonanda o'z ixtiyoriga ko'ra mashqni yanada boyitib, bezab ijro etishi mumkin. Faqat me'yordan oshmaslik va bachkanalikka yo'l qo'ymaslik kerak bo'ladi:

³ Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 169-б.

⁴ Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 91-б.

Maestoso



Maestoso

3. Quyidagi ovoz mashqi esa yengil stakkato orqali ijro etiladi. Ushbu mashq yordamida xonanda yuqori pog'onalarda kuylab ovoz apparati mushaklarini chiniqtirib oladi. Bu mushaklar ko'krak qafasidan biroz pastroqda va qorin bo'shlig'ining ustki qismida joylashgan bo'ladi. Ular nafas olish va chiqarish jarayonida faol ishtirok etadi. Mashqdan so'ng bu mushaklarda biroz toliqish alomatlari sezilishi mumkin. Ammo shu tarzda mashq bajarilgani maqsadga muvofiq:



Allegro

Ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya

Ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya ya

References:

1. Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
2. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. “Т” ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент.
3. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. “С” ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент.
4. www.ziyouz.com
5. <https://imlo.uz>